

## GLITSERINNING KASMETOLOGIYADA ISHLATILISHI VA FOYDALARI

**Musayeva M.A., Yusupova F.B., Umurkulova.F.A**

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, Termiz shahar Farovon massiv 43B uy

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada glitserindan kasmetologiyada foydalanish, uning foydalari, kimyoviy tarkibini o'rganadi. Maqola, kosmetika sohalaridagi qo'llanishi, shuningdek, zamonaviy tadqiqotlar orqali uning yangi imkoniyatlarini ko'rib chiqadi. Glitserinning kasmetologiyada o'rni va uning qo'llanilishi haqida ma'lumotlar ushbu maqolada chop etilgan.

**Kalit so'zlar:** Suyultirigan glitserin, gialuron kislotasi, centella asiatica ekstrakti, yuz parvarishi, yuz qabarishi.

## ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ГЛИЦЕРИНА В КОСМЕТОЛОГИИ

Мусаева М.А., Юсупова Ф.Б., Умуркулова Ф.А.

**Термезский университет экономики и сервиса, г. Термез, массив Фараван  
43Б-дом.**

**Аннотация:** В данной статье рассмотрено применение глицерина в косметологии, его польза, химический состав. В статье рассматривается его применение в сфере косметики, а также его новые возможности благодаря современным исследованиям. Информация о роли глицерина в косметологии и его применении опубликована в этой статье.

**Ключевые слова:** Разбавленный глицерин, гиалуроновая кислота, экстракт центеллы азиатской, уход за лицом, прыщи на лице.

## USE AND BENEFITS OF GLYCERIN IN COSMETOLOGY

Musayeva.M.A., Yusupova.F.B., Umurkulova.F.A

**Termiz University of Economics and Service, Termiz city, Farovon Massiv 43B,**

**Abstract:** This article examines the use of glycerin in cosmetology, its benefits, chemical composition. The article examines its application in the field of cosmetics, as

well as its new possibilities through modern research. Information about the role of glycerin in cosmetology and its use is published in this article.

**Key words:** Diluted Glycerin, Hyaluronic Acid, Centella Asiatica Extract, Face Care, Facial Blemish

**KIRISH.** Glitserin o'simlik moyli yoki hayvon yog'laridan olinadigam shaffof rangsiz va hidsiz tabiiy birikmadir. 2016-yilgi tadqiqot natijalariga ko'ra glitserin ko'plab vositalar bilan solishtirilganda terining yuqori qatlamida namlikni oshirish uchun "Eng samarali namlovchi" deb topilgan.

Glitserinning foydalarini:glitserin terini namlash bilan birga himoya qilishga yordam beradi. Lekin ayrim hollarda yuzda qurish va qabariq paydo bolishiga olib kelishi mumkin, agar suyultirilmagan bo'lsa.

Glitseringa mineral kislotalar ta'sir ettirib efirlar olinadi, mas, nitrat va sulfat kislotalar aralashmasi ta'sir ettirilsa, nitroglitserin hosil bo'ladi. Glitserin tabiiy yog' va karbon kislotalarning triglitseridlari aralashmasidan iborat moylar tarkibida bo'ladi. Sanoatda oziq-ovqat yog'larini turli katalizatorlar (kislotalar, ishqorlar, fermentlar) ishtirokida sovunlash yo'li bilan olinadi. Hozir Glitserinni sintez yo'li bilan propilendan olish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Glitserin organizmda yog'lar va fosfatidlarning parchalanishidan hosil bo'lib, yog' va uglerod almashinuvida bog'lovchi vositasini o'taydi.



Umumiy tarif: Glitserin namlantiruvchi vazifani bajaradi va quyidagi maqsadlarda foydalilaniladi.

\*giperosmotik laksatif (ich qotishini davolash uchun) larda.

\*ko'plab farmatsevtika preparatlarining tarkibiy qismi sifatida.

\*shirinlashtiruvchi vosita sifatida.

\*qalinlashtiruvchi vosita sifatida.

Amerika Dermalogiya Akademiyasi ma'lumotlariga ko'ra glitserin:

- terining tashqi qatlamini namlaydi.
- terining to'siq funksiyasini yaxshilaydi.
- yarani davolash jarayonlarini tezlashtiradi.
- quruq tarining parvarishida yordan beradi.
- psoriaz simptomlarida yordam berishi mumkin.

Glitserin AQSH oziq-ovqat va farmatsevtika idorasi(FDA) tomonidan xavfsiz deb tan olingan.

2017-yil tadqiqotlariga ko'ra glitserin, gialuron kislotasi va centella asiatica ekstarktini qo'llashdan keyin 24 soatgacha terining himoya funksiyasini yaxshilaydi. Nojo'ya tasirlari ko'p bo'lmasada glitserin tabiiy mahsulot, shuning uchun har doim allergik reaksiya uchun potensial xavf mayjud.

Namlagich sifatida glitserin eng yaqin manbadan suv oladi. Past namlik sharoitida eng yaqinsuv manbayi teringizning pastries qatlamlari bo'lib qoladi. Bu terini suvsizlantirishi, hatto qabariq paydo bo'lishigacha olib kelishi mumkin. Suyultirmagan glitserin qabariq paydo bo'lishgacha olib kelishi mumkinligi sababli sof glitserinni ishlatishdan ko'ra, tarkibida glitserin bo'lgan mahsulotlardan foydalanish samaraliroqdir. Tabiiy kosmetikaning ko'plab tarafdorlari glitserinni atirgul suvi bilan suyultirilishni tavsiya qiladi, chunki atirgul suvi terini namlaydi va poralarini tozalaydi. 2019-yilgi tadqiqotlarga ko'ra atirgul suvi teridagi yallig'lanishga qarshi samarali tasir ko'rsatdi.

Glitserinning kimyoviy tarkibi: Glitserin (grekcha: „glykeros“ — shirin) — 1, 2, 3-propantriol, HOCH<sub>2</sub>-CH(OH)-CH<sub>2</sub>OH — uch atomli oddiy spirt; rangsiz, hidsiz, shinniga o'xshash, chuchmal suyuqlik; Mol. m. 92,09, zichligi 1260 kg/m<sup>3</sup>, suyuqlanish temperaturasi 17,9°, qaynash temperaturasi 290°, suvga, metil va etil spirtlarga, atsetonga aralashadi, spirt bilan efir yoki xloroform aralashmasida eriydi; yog‘, benzin, benzol, uglerod sulfidda erimaydi. Organik va anorganik moddalarni, mas, tuz, ishqor, shakarlarni eritib yuboradi; havodan suv yutadi (og'irlik jihatidan 40% gacha). Suv bilan aralashtirilsa issiqlik ajralib chiqib, kontraksiya (hajm kamayishi) hodisasi kuzatiladi. Boshqa spirtlar kabi metall glitseratlar hosil qiladi.

Sanoatda oziq-ovqat yog‘larini turli katalizatorlar (kislotalar, ishqorlar, fermentlar) ishtirokida sovunlash yo‘li bilan olinadi. Hozir Glitserinni sintez yo‘li bilan propilenden olish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Glitserin organizmda yog‘lar va fosfatidlarning parchalanishidan hosil bo‘lib, yog‘ va uglerod almashinuvida bog‘lovchi vositasini o‘taydi.

Yuqori yog‘ kislotalarining triglitseridlari hayvon va o‘simlik yog‘larining asosini tashkil etadi. Glitserin nitroglitserin, gliftal smolalar ichida, matolar, teri va qog‘ozni yumshatuvchilar, emulgatorlar, antifrizlar, surkov moylari, poyabzal moylari, sovun va yelimlar, atir-upa va kosmetik preparatlar, tibbiyot mazlari, likyorlar, qandolat mahsulotlari komponenti sifatida qo‘llanadi.

Xulosa. Glitserin kosmetologiyada ham tibbiyotda ham foydalaniladi va uning foydalari ham kam emas. Undan to‘g’ri foydalansa deyarli zararsiz. Kosmetologiyada yuz parvarishi uchun ishlatilsa tibbiyotda esa yurak og‘rig‘ida va gastritda og‘riq qoldirishga qarshi dori sifatida foydalaniladi. Glitseringa mineral kislotalar ta’sir ettirib efirlar olinadi, mas, nitrat va sulfat kislotalar aralashmasi ta’sir ettirilsa, nitroglitserin hosil bo‘ladi. Glitserin tabiiy yog‘ va karbon kislotalarning triglitseridlari aralashmasidan iborat moylar tarkibida bo‘ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Lazutka, J. R., et al. "Genotoxicity of Dill (Anethum Graveolens L.), Peppermint (MenthaPiperita L.) and Pine (Pinus Sylvestris L.) Essential Oils in Human Lymphocytes and Drosophila Melanogaster." Food and Chemical Toxicology, 39.5 (2001): 485-92.;
2. Grieve, Margaret. "A Modern Herbal-Mints." Botanical.com. 23 Feb 2008;
3. Simonsen, J. L. (1953). The Terpenes, 2nd edition 1, Cambridge: Cambridge University Press, 394-408;
4. Miloradovich, Milo. Growing and Using Herbs and Spices. Courier Dover Publishing, 1986;
5. Gillette, Fanny Lemira. “White House Cook Book: A Selection of Choice Recipes Original and Selected, During a Period of Forty Years’ Practical Housekeeping.” The Historic American Cookbook Project. 23 Feb 2008;
6. Plant Oils: Chemistry, Technology, and Applications" by S. P. V. S. R. Anjaneyulu and R. P. V. Yadava;
7. ”Fitoterapiya” by N.V. Lazarev;
8. Ibn Sino ning “dorivor o‘simliklar” kitobidan
9. “O’simliklarni ishlatish bo‘yicha qo‘llanma” (tibbiyot va farmatsiya sohasidagi qo‘llanmalarda);
10. "Farmatsevtika dasturlari" (Farmatsevtikadan olingan tavsiyalar).